



## TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA QALAMCHIZGILARNING AHAMIYATI

*Bo'riyeva Gulsanam (SamDPI Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'at asarlari kompozitsiyasini yaratishda qalamchizgilarning ahamiyati haqida, ularning bajarish metodikasiga doir ma'lumotlar va tushunchalar yoritilib berilgan. Qalamtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi sifatida qo'llanishi, yosh bo'lajak rassom pedagoglarning tasviriy san'at turlarini o'zlashtirishida uning imkoniyatlari va qulayliklari haqidagi fikrlar ta'kidlangan.

**Tayanch so'zlar:** *Realistik, kompozitsiya, san'at, haykaltaroshlik, dizayn san'ati, tush, sangina, pastel, sous, qalam, anglash, kuzatish, jismlarni o'zaro solishtirish, jismlarning shakli, rangi, materiallik xususiyati.*

San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi ko'p lab san'at turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarga ko'ra turli vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot — so'zdan, musiqa — tovushlardan, tasviriy san'at — rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi yana bir necha xil va janrlarga bo'linadi.

San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri — tasviriy san'atdir.


San'atkor o'z asarlarida voqea va hodisalar, turli holatlarning ma'lum bir ko'rinishini ifodalab, tasvir orqali ichki mohiyatni ochib, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati va fikrlarini tasvirlaydi.


Rassom biror shaxs rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatish bilan chegaralanmaydi, balki tasvir orqali, avvalo, o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. U dastlab g'oyaga mos mavzu tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'lda izlanadi, naturani kuzatib, eskizlar chizadi hamda etyudlar yaratadi. Tasviriy san'atda predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning o'zaro muvozanatini to'g'ri ko'rsatishda tasvirni aniq ishlash juda muhim.

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Ushbu yo'nalishda ta'lim oluvchi talabalarning tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didini, rang sezishi va tasavvurini rivojlantiradi, buyuk rassomlar yaralgan asarlar go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni idrok etishga olib keladi.

Tasviriy san'at nazariy asoslari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish. ayniqsa, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, qurish yasash, haykaltaroshlikdan malaka hosil qilish, manzarali, mavzuli





kompozitsiya yaratish, odam shaklini turli harakatlar va kiyimlarda tasvirlash usullari, haykaltaroshlik, dizayn san'ati, tasviriy san'at tarixi haqidagi ko'nikma va ma'lumotga ega bo'lish tasviriy san'at o'qituvchisi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvir - barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'atning qaysi bir turida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi.

U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamdan boshlaydi. Shundan keyingina ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi.

Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi. Qalamtasvir boshqa san'at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san'at asari ham bo'lishi mumkin. *Tush, sangina, pastel, sous, qalam* bilan bajarilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan. Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.


Qalamtasvir mashg'ulotlari borliqdagi turli shakllarni realistik tasvirlash o'quvchilarga amaliy bilim va ko'nikmalarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega.


Realistik tasvirlash san'ati, bo'lajak pedagoglarga borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratlarini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rasm chizishni o'rganish o'quvchilarga atrofdagi jismlarning realistik tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o'stiradi. Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi. Bo'lajak o'qituvchining yetuk malakaga ega bo'lishda nafaqat amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, balki tasvirlash san'ati sohasida nazariy tayyogarliligining puxtaligiga ham bog'liq.

Qalamtasvir o'quvchilarda borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlashni mukammal o'zlashtirish, yosh rassomlarni tayyorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi. Qog'oz yuzasida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat bilan, hamda to'g'ri tasvirlash uchun, tasviriy malakani mukammal egallash va uni amaliyotda qo'llash — naturaga, shuningdek, xotira va tasavvur asoslanib rasm chizishni o'rganish zarur. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun inson rassomchilik qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z ustida uzluksiz va betinim ishlay olishi muhimdir.

Qalamtasvirning asosiy vazifasi yoshlarda tasvirlash mahorat qirralarini o'rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. U o'quvchidan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan to'g'ri foydalana olishni ko'zda tutadi.

Rasm chizishga o'rgatish bu bir-biri bilan o'zaro bog'liq boigan quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog'liqdir: narsani o'ziga qarab *anglash, kuzatish, jismlarni o'zaro solishtirish, jismlarning shakli, rangi, materiallik xususiyati bo'yicha farqlash va boshqalar*. Rasm chizish mashg'ulotlari e'tiborli bo'lishga, fikrlashga va jismlarning shaklini aniq tahlil qilishga o'rgatishi lozim.





Realistik rasm chizish asoslarini, uslublarini va mahoratini o'zlashtirish, tasvirlashda ketma-ketlikni bilishga va turli materiallardan foydalana olishga o'rgatadi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarida bo'lajak mutaxassis bilim olishi va malakasini oshirishi, turli xil qalamlar bilan ishlashni o'rganishi va o'z qobiliyatini shakllantirishi, amaliyotda undan samarali foydalana olishi muhim hisoblanadi.

Ko'rish orqali eslab qolish yosh rassomning eng qimmatli va e'tiborli hislatidir. U tasvirdagi jism shakli, nisbati va tuzilishi haqidagi aniq va umumiy tasavvurni xotirada saqlaydi. Bu esa shaklni "xotiradan", "tasavvur va anglash" asosida chizish imkonini beradi va rassomning kelgusi ijodida mustaqil san'at asar kompozitsiyalari yaratish borasidagi malakalarini shakllantiradi.


Naturadan rasm chizish bo'yicha olib borilgan doimiy mashqlar natijasida ko'rib eslab qolish qobiliyati rivojlanadi. Bunday mashqlar, ayniqsa, rassomchilikka endi qadam bosayotgan yoshlar uchun nihoyatda muhimdir. Bunday mashg'ulotlar jismlarning shakl jihatdan, tuzilishi, nisbatlari va insonlarni tasvirlashda esa, plastik anatomiya to'g'risidagi bilim va malakalarini xotirada yanada mustahkamlanishida asosiy o'rin tutadi.


Ushbu maqsadni amalga oshirishda akademik rasmlar chizish bilan bir qatorda, qisqa muddatli chizgilar va qoramalar ishlash ko'zda tutiladi. Ko'rish xotirasini mustahkamlovchi bunday mashg'ulotlarda avvalo eng asosiy qism yodda qoladi, shakllarning ikkinchi darajali qismlari esa shakl jihatidan o'rganiladi. Bunda asosiy maqsad – umumiy shaklni eslab qolish. Shuningdek mashg'ulotlar davomida eslab qolish darajasi kengayadi va chuqurlashadi: ikkinchi darajali qismlar va bo'laklar ham xotirada qoladi. Chizgilar va qisqa muddatli rasmlar o'quvchida naturani haqqoniy – to'liq ko'ra olish hislatini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

Ko'pchilik hollarda o'quvchi bir tartibda ishlamaydi, umumiy shakldan ko'ra uning qismlariga ko'proq e'tibor qaratadi va har bir elementning mohiyatini tushunib etmaydi. Agarda o'quvchi tasvirni to'liq ko'ra olsa va realistik tasvirlashning asosiy qonunlaridan bo'lgan, hamda metodik izchillikda "umumiydan bo'laklarga va bo'laklardan-yana umumiyga" tamoyilidan foydalangan holda tasvirlagandagina vazifa samarali bo'lishi mumkin. Doimiy ravishda qismlarni umumiy jism birgalikda tasvirlab ish yuritish bir vaqtning o'zida rasmning har bir qismi ustidan nazorat o'rnatish imkonini beradi.

Shaklning nisbatlari va chiziqli-konstruktiv tuzilishi, hajmini esa shtrixlash orqali amalga oshirish rassomdan bir vaqtning o'zida butun rasm ustida ishlash jarayonida mohirlik, hamda amaliy ko'nikmalarni talab etadi. Oddiy natyurmortdan tortib, to murakkab shaklga ega bo'lgan inson qomatini tasvirlash mashg'ulotlarida ushbu tamoyilga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchi qalamni oxiridan-charxlangan uchiga nisbatan qarama-qarshi tarafdin ushlab va jimjiloqni qog'ozga ohista qo'ygan holda shtrixlar bajarishi kerak. Bunday ish yuritilganda qalam qog'oz yuzasida istalgan burchak bo'yicha harakatlana oladi. Kerakli tus chiqarish uchun shtrixlarni teng intervallarda bir-biriga mos ravishda chizish orqali erishiladi.

Yuqoridagi matndan xulosa qilib aytganda tasviriy san'atning barcha turlarining asosi qalamtasvir hisoblanadi.





Tasviriy san'at turlarining asosi – qalamtasvirni chizmachilik bilan taqqoslasak, uning xususiyatlari yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Birinchidan, rassom tasvirni ko'z bilan chamalab, o'z qo'li bilan qisqa vaqtda tasvirlab ko'rsata oladi. Ikkinchidan, rassom tasvirda buyumning tashqi asosiy belgilari, uning materialligi, hajmi, yorug'ligi, fazoviy joylashuvi va hokazolarni ko'rsatadi.

Uchinchidan, qalamtasvirda nafaqat buyumning tashqi turli belgilari tasvirlanadi, balki buyumning ichki mazmuni ham ifodalanib, kuzatuvchida muayyan fikr va hissiyot uyg'otadi.

Qalamtasvir xususiyatlarini chuqurroq o'rganish uchun tasvirlash shartli ravishda bir necha turga bo'linadi.

Qalamtasvirning tasvirlash vositalari ishlatilishi bo'yicha tasvir chiziqli va tusli bo'ladi. Chiziqli rasm qoidaga ko'ra och rangli va umumlashtirilgan bo'ladi. Chiziqlar orqali badiiy obraz yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Boymetov B.B. Qalamtasvir. o'quv qo'llanma. –T.: Ilm ziyo, 2007.
2. D.E. Omonov. Qalamtasvir. darslik S:-2019yil SamDU tahririy nashriyot.
3. I.U. Izbasarov "Haykaltaroshlik". darslik S:-2022 yil SamDU tahririy nashriyot.
4. Abdirasilov S.F., Boymetov B.B., Tolipov N.X. Tasviriy san'at. –T.: Ilm ziyo, 2010, 176 b.
5. Abdirasilov S., Hasanov M. Rasm o'qitish metodikasi. –T.: Iqtisod-moliya, 2010.

